

Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 986 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 32 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8 954 tani tashkil qildi.


2026- yilning yanvar-may oylarida Toshkent viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 17 909,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 108,8 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 2 259,8 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 101,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 15 649,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 208,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 105,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 785 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 59 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 726 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 23 085,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 107,7 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 19 188,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 83,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'ati Yangiyo'l tumani (5,4 m.) tumani hamda Chirchiq (3,1 m.) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 3 014 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 000 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 305,3 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 69,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'zgarish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga ma'sul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Ijrochi: M.Mirzokirov
Tel: (+99871)203-45-00
(4541)

Manzil: Toshkent shahar Mirobod
tumani Yangi Qo'yliq ko'chasi, 2-
uy